

LOGISTIKA VA YETKAZIB BERISH ZANJIRINI SAMARALI BOSHQARISH

Nazarov Xalim Barnoyevich

Bank-moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11236633>

Annotatsiya. *Temir yo'l transporti - yuk va yo'lovchilarni lokomotiv va motorvagonlar vositasida temir yo'l bo'ylab tashiydigan transport turi hisoblanadi. Ushbu maqolada temir yo'llar misolida logistika va yetkazib berish zanjirini samarali boshqarish masalalari xususida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Logistika, yuklarni yetkazib berish zanjiri, tashuvchi, temir yo'l transporti.*

EFFECTIVE LOGISTICS AND SUPPLY CHAIN MANAGEMENT

Abstract. *Railway transport is a type of transport that transports cargo and passengers along the railway by means of locomotives and motorcars. This article deals with issues of effective logistics and supply chain management on the example of railways.*

Keywords: *Logistics, cargo supply chain, carrier, railway transport.*

ЭФФЕКТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ЛОГИСТИКОЙ И ЦЕПОЧКАМИ ПОСТАВОК

Аннотация. *Железнодорожный транспорт – это вид транспорта, осуществляющий перевозки грузов и пассажиров по железной дороге с помощью локомотивов и автомобилей. В данной статье рассматриваются вопросы эффективной логистики и управления цепями поставок на примере железных дорог.*

Ключевые слова: *Логистика, цепочка поставок грузов, перевозчик, железнодорожный транспорт.*

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha transport turlari jadal rivojlanayotganiga qaramay, temir yo'llar asosiy ommaviy yuk va yo'lovchi tashish vositasi bo'lib qolmoqda.

Bir necha yillar davomida yuk mashinalari ishlab chiqaruvchilari o'zlarining transport vositalari zararli chiqindi gazlar chiqarilishi bilan bog'liq qat'iy me'yorlarga javob berishi uchun zamonaviy texnologiyalarni ketma-ket tatbiq etib kelmoqdalar. Smog, issiqxona effekti va boshqa ifloslantiruvchi moddalarga qarshi kurash transportning tobora ko'proq temir yo'l transportiga yo'naltirilganligini anglatadi. Logistika xizmatining jozibador narxi va tashiladigan tovar turiga bog'liq bo'lgan erkinlik uni to'liq qulay va foydali yechimga aylantiradi. Temir yo'l transporti butun dunyoda tan olinadigan echimdir. O'ziga xosligi tufayli temir yo'l nafaqat xavfsiz, balki moliyaviy jihatdan ham jozibali. Keng vagonlar cheksiz miqdorda yuk tashishga qodir. Katta diapazon tufayli temir yo'l omborlari yuklarni bir-biriga bog'laydigan qit'alar bilan bir qatorda mamlakatlar o'rtasida ham tashiy oladi.

Texnologik taraqqiyot tufayli bugungi poyezdlar kam energiya sarfi bilan ajralib turadi - bu o'z navbatida atrof-muhitni samarali himoya qilishga aylanadi. Avtotransport bilan taqqoslaganda, temir yo'l nafaqat katta yuk maydonini, balki yetkazib berish muddatini ham qisqartiradi.

Temir yo'l transporti davlatimizning asosiy transport turlaridan biri hisoblanadi. Temir yo'l transporti muhim davlat, xalq xo'jalik va mudofaa ahamiyatiga egadir. Umumiy uzunligi 4854 km. shundan 3833km bir izli va 1021km ikki izli bo'lgan mamlakatimiz temir yo'llari turli xil texnik qurilma va vositalardan, ya'ni temir yo'l izlari, harakatdagi sostav (lokomotiv va vagon)lar,

lokomotiv hamda vagon xo'jalik inshootlari, signallar, aloqa qurilmalari, jihozlari, elektr, suv ta'minoti xo'jaliklari; temir yo'l stansiyalari va uzellaridan iborat.

Temir yo'l transportida yuk, yo'lovchi va bagajlarni tashishda tijorat operatsiyalarni ma'lum ketma-ketlikda bajarish oqibatida, ularning makondagi joylari o'zgartiriladi, yuklar ishlab chiqarish doirasidan iste'mol doirasiga, yo'lovchi va uning bagaji tayinlangan manzilga yetkazib beriladi. Bu operatsiyalarni me'yorlarda belgilangan muddatlarda, aniq, to'la-to'kis va lozim darajada bajarish yuklarni tayinlangan manzillarga o'z vaqtida to'la asrab yetkazib berishni, yo'lovchilarga esa sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi.

Texnik operatsiyalar majmuasi tashish jarayonini boshqarishdagi temir yo'lining ichki faoliyati hisoblanib, ularni bajarishni temir yo'lining mutasaddi korxonalari amalga oshiradilar.

Yuk va tijorat operatsiyalari tashish jarayonini boshqarishdagi temir yo'lining tashqi faoliyati hisoblanib, ular majmuasi temir yo'l transportining davlat korxonalari, tashkilotlari, boshqa turdagi transportlar va xususiy shaxslar bilan bo'lgan tarmoqlararo texnologik aloqalarini hamda yuridik munosabatlarini tavsiflaydi. Yuk va tijorat operatsiyalariga: jo'natuvchilardan yuklarni qabul qilib olish va oluvchilarga yuklarni topshirish, yuklarni tortish, ortish va tushirish, yo'l safarida yuklarni saralash va qayta yuklash, omborlarda yuklarni vaqtinchalik saqlash va taxlash, tashish bilan bog'liq bo'lgan yuk hujjatlarini rasmiylashtirish, yig'implarni hamda zaruriyatli holatlarda kira haqlarini undirish, vagonlarni qabul qilib olishni hamda bu operatsiyalarni lozim darajada rasmiylashtirish va va shu kabi operatsiyalar mansub bo'ladilar.

Temir yo'l transportining tarmoqlararo munosabatlari sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini transport tashkilotlariga, tashishga topshirish paytida paydo bo'ladi. Ushbu topshirish paytida mahsulotni birinchi aylanishi sodir bo'ladi. Keyinchalik yukni tovar, xomashyo yoki fabrikat sifatida iste'mol qilish maqsadida foydalanish mumkin bo'lishligi uchun, uni ikkilamchi aylanishi sodir bo'ladi. «Mahsulot-yuktovar» sxemasidagi bunday o'zgarishlarda yuk tashish bo'yicha javobgarlik bilan bog'liq bo'lgan kompleks operatsiyalar va yuridik-tartibli harakatlar (protseduralar) vujudga keladi. Tarmoqlararo aloqalar eng avvalo, yuk tashish buyurtmanomalarini yuk jo'natuvchilardan qabul qilib olishda va uni amalga oshirishda, dastlabki va so'ngi operatsiyalarni bajarishda namayon bo'ladi. Tarmoqlararo munosabatlar temir yo'lining eng muhim faoliyat turi bo'lgan tijorat ishlarini keltirib chiqaradi.

Temir yo'l transportiga turli, shu jumladan, ancha olis masofalarga tashish uchun juda katta miqdorlarda - 5 mingdan ziyod nomdagi har xil tovar mahsulotlari taqdim etiladi. Bunday katta miqdordagi, turli nomdagi yuklarni tashishda: ularni yetkazib berish muddatlarini qisqartirish, tashish jarayonida ularni asrashni va poyezdlar harakat xavfsizligini ta'minlash tashilayotgan yuklarni atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirini kamaytirish hamda vagonlarni yuk ko'tarishidan va sig'imidan foydalanishni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq qilish lozim bo'ladi. Temir yo'l transportida bunday muhim muammolarni hal qilish, tashish shart-sharoitlarini belgilovchi, yuklarning transport tavsifnomalari bilan bog'liq bo'lgan ularning fizika kimyoviy, biologik va boshqa xususiyatlarini, hajmiy-massa parametrlari hamda idish va o'rash materiallarining tavsif, tasnif vazifalarini o'rganib bilishga bevosita bog'liq bo'ladi.

Temir yo'l ustavining 149-moddasida, Yuk jo'natuvchilardan, yuk oluvchilardan va temir yo'lvchilardan har bir nakladnoy bo'yicha eng kam ish haqining 1 baravaridan kam bo'lgan miqdordagi kamomad uchun da'vo arizalarini kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi, jismoniy

shaxslarning (fuqarolarning) tashilayotgan uy-ro'zg'or buyumlarining yetishmasligi, yo'qolishi, buzilganligi, shikastlanganligi to'g'risidagi da'volari bundan mustasnoligi belgilab quyilgan.

Harakatdagi sostavni yuk ko'tarishidan va sig'imidan yaxshiroq foydalanish masalalari va yuklarni tashishda nobudgarchilikka qarshi kurash muammolarini hamda yuklarni yetkazib berish muddatlarini qisqartirish, harakat xavfsizligini ta'minlash, transportni atrof muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish, harakatdagi sostav turlarini, ombor jihozlarini, paketlash vositalarni tanlash, yuklarni tashish shart sharoitlarini ishlab chiqish va shu kabi masalalarni yechimini topishda yuklarni hajmiy-massa parametrlarini, fizika-kimyoviy, mexanik va biologik xususiyatlarini bilish kerak bo'ladi.

Yuklarni transportda yetkazib berishga tayyorlash operatsiyasini yuk jo'natuvchilar bajaradilar. Transport jo'natish manzilida tovarlarni qabul qilib olib qoida va me'yorlarda ko'rsatilgan sifat hamda miqdor ko'rsatkichlariga putir yetkazmay, ya'ni yuklarni asrab-avaylab tayinlangan manziliga o'z vaqtida yetkazib berib, oluvchiga topshirishi kerak. Lekin juda ko'plab tovarlar, mahsulotlar va xomashyolar ishlab chiqarilgan holatida yetkazishga tayyor emas. Masalan, ulkan va og'ir vaznli yuklarni ortish gabariti chegarasida vagonlarga joylashtirishni imkoniyati bo'lmasligi mumkin, bunday hollarda ularni qismlarga ajratiladi va bo'lib yetkaziladi, ularni qismlarga ajratishni esa yuk jo'natuvchi oldindan amalga oshirishi kerak. Shakar, un va shunga o'xshash mahsulotlarni qoplanga solish lozim. Demak, yuklarni yetkazib berishga tayyorlash operatsiyalarini yuk egalari amalga oshiradilar. Lekin temir yo'li mas'ul xizmatchilari bunday yuklarni yetkazib berish manzillarida qabul qilib olayotgan paytida bu masalaga, ya'ni yuklarni yetkazib berishga tayyorlash qanday darajada amalga oshirganligiga e'tibor qaratishlari kerak bo'ladi, chunki tashishga lozim darajada tayyorlanmagan yuklar, tashish jarayonida talay nobudgarchiliklarni keltirib chiqarishi va bu nobudgarchiliklar keltirib chiqagan zarar temir yo'li zimmasiga yuklanib qolishi ham mumkin.

Yuklarni ortish-tushirish va ombor operatsiyalarini hamda yuklarni yetkazib berish operatsiyalarini bajarishda esa yuklarni nobudgarchilikdan asrashni ta'minlashga, poyezdlar harakatini xavfsizligiga, yuklarni o'z muddatlarida yetkazib berishga, transportning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishga va shunga o'xshash muammo va masalalarni ijobiy hal qilishga transport xodimlari katta e'tibor berishlari kerak.

Xulosa qilib aytganda, temir yo'l transporti uchun muhim bo'lgan bu kabi muammo va masalalarni ijobiy hal qilish ko'p jihatdan yuklarning transport tavsifnomasi yuklarni tashish shart-sharoitlarini asrashni ta'minlash va tashishda nobudgarchiliklarni kamaytirish chora tadbirlarni ishlab chiqishni belgilovchi yuklarning hajmiy-massa parametri, fizika-kimyoviy, biologik va boshqa xususiyatlarini o'rganishni taqozo etadi.

REFERENCES

1. A.SH. Shorustamov, R.YA. Abdullayev. Temir yo'l bekatlari va tugunlari., Temir yo'l kollejlari uchun darslik. CHO'lpon.T.-2007.182 bet.
2. Корнаков А.М. Развязка железнодорожных линий в узлах. М., Транспорт, 1992.
3. Ташматова М.С., Исматуллаев А.Ф. Тез бузилувчан юкларни етказиб бериш занжирида совутиш омборларини ривожлантириш аҳамияти. Научный журнал

транспортных средств и дорог - The scientific journal vehicles and roads, 2022, № 2 (5), pp. 32 – 39.

4. Ташматова М.С., Исматуллаев А.Ф. Ортиш-тушириш ишларини оптималлаштиришнинг омбор параметрларни таъсирини таҳлили. Научный журнал транспортных средств и дорог - The scientific journal vehicles and roads, 2022, № 3 (1), pp. 6 – 14.